

Date: 3rd August-2026

O‘ZBEKISTONDA QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I ZANJIRIDAGI
UZILISHLARNI KAMAYTIRISH VA SOLIQ MA‘MURIYATCHILIGINI
TAKOMILLASHTIRISH

Alimov Mansurboy Maxmudovich

Sirdaryo tumani Maktab va maktabgacha ta’limi bo‘limi mutaxassisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda qo‘shilgan qiymat solig‘i zanjirining iqtisodiy mazmuni, uning uzilishiga olib keluvchi omillar hamda bunday uzilishlarning byudjet tushumlari va tadbirkorlik faoliyatiga ta’siri tahlil qilingan. Elektron hisobvara-q-fakturalardagi nomuvofiqliklar, soxta operatsiyalar, kontragentning soliq majburiyatini bajarmasligi, biznesni sun’iy bo‘lish va realizatsiya aylanmasini yashirish QQS zanjiridagi asosiy xavflar sifatida baholangan. Soliq nazoratida yalpi cheklovlar o‘rniga operatsiyalar va kontragentlarning xavf darajasiga asoslangan yondashuvni kengaytirish, elektron hujjatlarni avtomatik solishtirish, soliq to‘lovchiga xatolarni ixtiyoriy tuzatish imkoniyatini berish hamda kiruvchi QQSni hisobga olish jarayonini shaffoflashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘shilgan qiymat solig‘i, QQS zanjiri, soliq bo‘shlig‘i, elektron hisobvara-q-faktura, kiruvchi QQS, soliq xavfi, soxta operatsiya, soliq ma‘muriyatchiligi.

Kirish

Qo‘shilgan qiymat solig‘i tovarlar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish jarayonining har bir bosqichida yaratilgan qo‘shilgan qiymatni soliqqa tortishga asoslangan bilvosita soliqdir. QQSning iqtisodiy yuki yakuniy iste’molchi zimmasiga tushsa-da, uni hisoblash, undirish va byudjetga o‘tkazish majburiyati realizatsiya jarayonida ishtirok etuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan bajariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 238-moddasiga muvofiq tovarlarni va xizmatlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma hamda O‘zbekiston hududiga tovarlarni olib kirish QQS solish obyektlari hisoblanadi. Kodeksning 247-moddasida soliq bazasini aniqlashning umumiy qoidalari, 254-moddasida esa tovarlar importida soliq bazasini belgilash tartibi nazarda tutilgan. QQSning bazaviy stavkasi Soliq kodeksining 258-moddasida belgilangan bo‘lib, 12 foizni tashkil etadi [1]. Shu sababli huquqiy normalarni qo‘llashda soliq obyekti, baza, stavka va hisobga olish qoidalarini aralashtirib yubormaslik muhimdir.

QQS mexanizmining markaziy elementi soliqni hisobga olish tizimi hisoblanadi. Soliq to‘lovchi realizatsiya operatsiyalari bo‘yicha xaridorlarga taqdim etilgan hisobvara-q-fakturalarda hisoblangan QQSdan tovarlar va xizmatlarni xarid qilishda yetkazib beruvchilarga to‘langan hamda qonunchilik talablariga muvofiq hisobga olinishi mumkin bo‘lgan QQS summasini chegiradi:

$$QQS_{budjet} = QQS_{chiquvchi} - QQS_{kiruvchi}$$

bu yerda:



Date: 3rd August-2026

QQS_{byudjet} — byudjetga to'lanadigan soliq summasi;

QQS_{chiquvchi} — realizatsiya operatsiyalari bo'yicha hisoblangan QQS;

QQS_{kiruvchi} — xaridlar bo'yicha hisobga olinadigan QQS.

Ushbu mexanizm to'g'ri ishlashi uchun tovar harakati, hisobvaraq-faktura, to'lov va soliq hisoboti o'rtasida uzviy muvofiqlik bo'lishi kerak. Sotuvchi hisoblagan QQS xaridor tomonidan kiruvchi QQS sifatida aks ettiriladi. Shu tariqa har bir keyingi operatsiya avvalgi operatsiyaga axborot va soliq majburiyati jihatidan bog'lanadi.

QQS zanjirining bir bo'g'inida operatsiya yashirilsa, hisobvaraq-faktura rasmiylashtirilmasa, soxta hujjat tuzilsa yoki hisoblangan soliq byudjetga o'tkazilmasa, tizimning keyingi bosqichlarida nomuvofiqlik paydo bo'ladi. Bir subyektda yuzaga kelgan qoidabuzarlik uning kontragentlari soliq majburiyatlariga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli QQSni ma'muriyatchilik qilishda alohida soliq to'lovchini emas, balki tovar va pul harakatining to'liq zanjirini tahlil qilish zarur.

QQS O'zbekiston davlat byudjeti daromadlarining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. 2026-yil uchun respublika byudjeti prognozida bilvosita soliqlardan 114,2 trln so'm, shu jumladan QQSdan 84,6 trln so'm tushum nazarda tutilgan [2]. Mazkur ko'rsatkich QQS zanjiridagi hatto nisbatan kichik uzilishlar ham byudjet daromadlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Biroq, QQS zanjirini himoya qilish faqat byudjet tushumlarini ko'paytirish vazifasi bilan cheklanmaydi. Zanjirdagi uzilishlar halol soliq to'lovchilar uchun ham qo'shimcha xavf tug'diradi. Tadbirkor tovarni haqiqatda xarid qilgan, to'lovni amalga oshirgan va elektron hisobvaraq-fakturani qabul qilgan bo'lishi mumkin. Keyinchalik yetkazib beruvchi soliq hisobotini taqdim etmasa yoki hisoblangan soliqni byudjetga o'tkazmasa, xaridorning kiruvchi QQSni hisobga olish huquqi bo'yicha nizo yuzaga kelishi ehtimoli mavjud. Bunday holatda soliq nazorati qoidabuzar yetkazib beruvchining xatti-harakatlarini lozim darajada ehtiyotkorlik ko'rsatgan halol xaridorning harakatlaridan aniq ajratib baholashi lozim.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda QQS zanjiridagi uzilishlarning asosiy sabablarini aniqlash va ularni kamaytirishga qaratilgan soliq ma'muriyatchiligi choralarini ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- QQS zanjirining iqtisodiy va huquqiy mazmunini ochib berish;
- zanjir uzilishining asosiy ko'rinishlarini tasniflash;
- elektron hisobvaraq-faktura ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyatlarini baholash;
- xavfli operatsiya va kontragentlarni aniqlash mezonlarini takomillashtirish;
- halol soliq to'lovchining kiruvchi QQSni hisobga olish huquqini himoya qilish;
- soliq nazoratini avtomatlashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

QQS zanjiridagi uzilishlarning asosiy ko'rinishlari

QQS zanjiridagi uzilish — real tovar yoki xizmat harakati, hisobvaraq-faktura, to'lov va soliq hisobotida aks ettirilgan ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlikning buzilishidir.



Date: 3rd August-2026

U oddiy texnik xatodan tortib, oldindan rejalashtirilgan soliqdan bo'yin tovlash sxemasigacha bo'lgan turli holatlarni qamrab oladi.

Birinchi ko'rinish — realizatsiya aylanmasini yashirish. Bunda tovar yoki xizmat realizatsiya qilingan bo'lsa-da, onlayn nazorat-kassa cheki yoki elektron hisobvaraqq-faktura rasmiylashtirilmaydi. Natijada sotuvchida chiquvchi QQS hisoblanmaydi, keyingi xaridorda esa tovarning qonuniy kelib chiqishini tasdiqlovchi hujjat mavjud bo'lmaydi.

Ikkinchi ko'rinish — tovar yoki xizmat bilan ta'minlanmagan hisobvaraqq-fakturalarni rasmiylashtirish. Bunday holatdan asossiz kiruvchi QQSni shakllantirish, foyda solig'i bazasini kamaytirish yoki naqdlashtirish operatsiyalarini niqoblash maqsadida foydalanilishi mumkin. Hujjat mavjudligi operatsiya haqiqatda amalga oshirilganligini avtomatik ravishda anglatmaydi. Shuning uchun elektron hisobvaraqq-faktura ma'lumotlari tovar qoldig'i, ombor, transport, bojxona, to'lov va xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan taqqoslanishi kerak.

Uchinchi ko'rinish — sotuvchi hisoblagan QQSni byudjetga to'lamasligi. Xaridor kiruvchi QQSni hisobga oladi, biroq yetkazib beruvchi tegishli chiquvchi QQSni hisobotda aks ettirmaydi yoki soliqni to'lamasdan faoliyatini tugatadi. Xalqaro amaliyotda bunday holatlar "yo'qolib qoluvchi savdogar" sxemalarining asosiy belgisi sifatida baholanadi.

To'rtinchi ko'rinish — biznesni sun'iy ravishda bo'lish. Yagona iqtisodiy faoliyat bir nechta yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor o'rtasida taqsimlanib, ularning har biri QQS bo'yicha majburiy ro'yxatdan o'tish chegarasidan past aylanma ko'rsatadi. Amalda esa ushbu subyektlar bir xil manzil, rahbar, ta'sischi, xodim, aktiv, tovar belgisi yoki mijozlar bazasidan foydalanishi mumkin.

Beshinchi ko'rinish — texnik va uslubiy nomuvofiqliklar. Tovlar yoki xizmat kodi, o'lchov birligi, shartnoma rekviziti, hisobvaraqq-faktura sanasi yoki QQS summasidagi xato ham avtomatik axborot tizimida zanjir uzilishi sifatida ko'rinishi mumkin. Bunday xatolarni qasddan sodir etilgan huquqbuzarlik bilan tenglashtirish soliq nazorati samaradorligini pasaytiradi va halol tadbirkorga asossiz ma'muriy yuk keltirib chiqaradi.

QQS zanjiridagi uzilishlarni baholash

QQS zanjiridagi barcha nomuvofiqliklarni bir xil darajadagi soliq huquqbuzarligi sifatida baholash to'g'ri emas. Ayrim farqlar hisobvaraqq-fakturadagi texnik xatolar tufayli, boshqalari esa soliqdan bo'yin tovlash maqsadida sodir etiladi. Shuning uchun soliq nazoratida nomuvofiqlikning xususiyati, takroriyliqi, miqdori va ishtirokchilarning o'zaro bog'liqligi hisobga olinishi zarur.

Jadval.

QQS zanjiridagi uzilishlarning turlari, xavf darajasi va ularga nisbatan qo'llaniladigan nazorat choralari⁸

Uzilish turi	Asosiy belgisi	Soliq oqibati	Xavf darajasi	Tavsiya etiladigan chora
Texnik xato	Kod, sana yoki rekvizitda farq	Hisob ma'lumotlari mos	Past	Avtomatik ogohlantirish va

⁸ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi; European Commission. VAT Carousel Fraud; OECD. Tax Administration 2024 ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Date: 3rd August-2026

		kelmaydi		tuzatish
Hisobotdagi tafovut	Sotuvchi va xaridor ma'lumotlari mos emas	Chiquvchi va kiruvchi QQS o'rtasida farq	O'rta	Kameral tahlil va tushuntirish talab qilish
Hujjatsiz realizatsiya	Tovar sotilgan, lekin chek yoki EHF mavjud emas	Chiquvchi QQS kamaytiriladi	Yuqori	Sayyor tekshiruv yoki tematik nazorat
Soxta hisobvara-q-faktura	Real tovar, aktiv yoki resurs mavjud emas	Asossiz kiruvchi QQS shakllanadi	Juda yuqori	Zanjirli tahlil va soliq tekshiruvi
“Yo‘qolib qoluvchi” yetkazib beruvchi	Xaridor QQSni hisobga olgan, sotuvchi soliqni to‘lamagan	Byudjetda soliq yo‘qotilishi	Juda yuqori	Operativ cheklov va aktivlarni tahlil qilish
Biznesni sun'iy bo'lish	Umumiy rahbar, manzil, aktiv yoki xodimlar	QQSga o'tish chegarasi chetlab o'tiladi	Yuqori	O'zaro bog'liq subyektlar aylanmasini birlashtirish

Ushbu tasnif soliq organiga nazorat resurslarini xavfi yuqori operatsiyalarga yo'naltirish imkonini beradi. Masalan, hisobvara-q-fakturada tovar kodining noto'g'ri ko'rsatilishi bilan real tovar harakatisiz katta miqdorda QQS hisobga olinishiga bir xil huquqiy va ma'muriy munosabat qo'llanilmasligi kerak.

QQS zanjirini raqamli nazorat qilish mexanizmi

Elektron hisobvara-q-faktura QQS zanjirini nazorat qilishning asosiy axborot manbasidir. Biroq faqat hisobvara-q-faktura ma'lumotlarini solishtirish operatsiyaning haqiqiyligini to'liq isbotlamaydi. Soxta operatsiya ishtirokchilari o'zaro muvofiq elektron hujjatlarni rasmiylashtirishi mumkin. Shuning uchun QQS nazorati bir nechta axborot manbasini o'zaro bog'lagan holda amalga oshirilishi lozim.

QQS zanjirini avtomatik tahlil qilish tizimi quyidagi ma'lumotlarni qamrab olishi maqsadga muvofiq:

- elektron hisobvara-q-fakturalar;
- onlayn nazorat-kassa texnikasi cheklari;
- bojxona yuk deklaratsiyalari;
- elektron tovar-transport yukxatlari;
- markirovkalanadigan tovarlar harakati;
- bank to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- ombor va tovar qoldiqlari;
- xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondi;
- ko'chmas mulk, transport va ishlab chiqarish uskunalari;
- ta'sischi, rahbarlar va benefitsiar mulkdorlar haqidagi ma'lumotlar.

Masalan, korxona katta miqdorda qurilish materiallarini realizatsiya qilganini ko'rsatsa, tizim unda tegishli xarid, import, ishlab chiqarish uskunasi, ombor, transport yoki xodimlar mavjudligini tekshirishi kerak. Ushbu resurslarning birortasi mavjud



Date: 3rd August-2026

bo'lasligi operatsiya soxta ekanini avtomatik ravishda isbotlamaydi, ammo chuqurlashtirilgan tahlil o'tkazish uchun xavf belgisi hisoblanadi.

QQS zanjiridagi xavfni baholash uchun quyidagi umumiy modeldan foydalanish mumkin:

$$R_i = w_1 E_i + w_2 T_i + w_3 P_i + w_4 A_i + w_5 C_i,$$

bu yerda:

R_i — operatsiya yoki soliq to'lovchining umumiy xavf ko'rsatkichi;

E_i — elektron hisobvaraqa-fakturalardagi nomuvofiqlik;

T_i — tovar harakati bilan bog'liq xavf;

P_i — to'lov ma'lumotlaridagi nomuvofiqlik;

A_i — aktivlar va ishlab chiqarish imkoniyatiga oid xavf;

C_i — kontragentlar zanjiridagi xavf;

$w_1...w_5$ — har bir mezonning statistik tahlil asosida belgilanadigan vazni.

Taklif etilayotgan model huquqbuzarlikni avtomatik ravishda belgilamaydi. U faqat nazorat uchun ustuvor operatsiyalarni saralaydi. Yakuniy huquqiy xulosa birlamchi hujjatlar, tovarning mavjudligi, to'lov, yetkazib berish va ishtirokchilarning izohlari o'rganilgandan keyin chiqarilishi shart.

Halol soliq to'lovchining huquqlarini himoya qilish

QQS ma'muriyatchiligidagi eng murakkab masalalardan biri — yetkazib beruvchi sodir etgan qoidabuzarlikning xaridorga ta'siridir. Agar tovar haqiqatda yetkazib berilgan, tadbirkorlik faoliyatida foydalanilgan, to'lov bank orqali amalga oshirilgan va elektron hisobvaraqa-faktura belgilangan tartibda qabul qilingan bo'lsa, xaridorning kiruvchi QQSni hisobga olish huquqini faqat yetkazib beruvchining soliqni to'lamagani sababli avtomatik bekor qilish adolatli emas.

Bunda xaridorning operatsiya soxtaligini bilgani yoki bilishi lozim bo'lgani dalillar bilan isbotlanishi zarur. Quyidagi holatlar xaridorning lozim darajada ehtiyotkorlik ko'rsatganini tasdiqlovchi mezonlar sifatida qabul qilinishi mumkin:

- kontragentning davlat ro'yxatidan o'tganligi tekshirilgan;
- shartnoma va elektron hisobvaraqa-faktura mavjud;
- tovarning qabul qilinganligi hujjatlar bilan tasdiqlangan;
- to'lov bank hisobvaraqa'i orqali amalga oshirilgan;
- xarid qilingan tovar korxonaning faoliyat xususiyatiga mos;
- bitim narxi bozor sharoitidan keskin farq qilmaydi;
- kontragentga nisbatan rasmiy cheklov operatsiya paytida e'lon qilinmagan.

Agar ushbu shartlar bajarilgan bo'lsa, asosiy soliq majburiyati qoidabuzar yetkazib beruvchiga qaratilgani maqbul. Aksincha, xaridor resursga ega bo'lmagan subyektdan katta miqdorda tovar xarid qilgan, to'lov naqdlashtirilgan yoki mablag'lar qisqa vaqtda o'zaro bog'liq shaxslarga qaytarilgan bo'lsa, uning operatsiyadagi ishtiroki chuqur tekshirilishi lozim.



Date: 3rd August-2026

Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar

Birinchidan, QQS zanjirining raqamli pasportini joriy etish taklif qilinadi. Unda har bir tovar yoki operatsiya bo'yicha dastlabki yetkazib beruvchidan yakuniy xaridorgacha bo'lgan harakat, hisoblangan va hisobga olingan QQS hamda zanjirdagi nomuvofiqliklar aks ettiriladi. Soliq to'lovchi shaxsiy kabineti orqali faqat o'ziga taalluqli bo'g'nlarni ko'rishi mumkin bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, elektron hisobvara-fakturani qabul qilishdan oldin xaridorga kontragent haqida qisqa xavf ogohlantirishi berilishi lozim. Unda kontragentni aybdor deb e'lon qilish emas, balki uning QQS guvohnomasi holati, hisobot topshirish intizomi va operatsiyani tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirish zarurati ko'rsatiladi.

Uchinchidan, nomuvofiqlik aniqlanganida darhol hisobga olishni bekor qilish o'rniga uch bosqichli tartib qo'llanilishi maqsadga muvofiq:

- avtomatik ogohlantirish;
- soliq to'lovchiga xatoni ixtiyoriy tuzatish yoki tushuntirish berish uchun muddat;
- tushuntirish berilmagan yoki xavf bartaraf etilmagan taqdirda kameral yoxud sayyor nazorat tadbiri.

To'rtinchidan, texnik xato bilan qasddan sodir etilgan soliq sxemasi aniq ajratilishi kerak. Birinchi marta yo'l qo'yilgan va byudjet yo'qotishiga olib kelmagan texnik nomuvofiqlikni ogohlantirish asosida tuzatish imkoniyati berilishi lozim. Takroriy, katta miqdordagi yoki o'zaro bog'liq shaxslar ishtirokidagi soxta operatsiyalarga nisbatan kuchaytirilgan nazorat qo'llanilishi shart.

Beshinchidan, QQS bo'yicha majburiy ro'yxatdan o'tish chegarasini aniqlashda o'zaro bog'liq subyektlarning aylanmasini umumlashtirish mexanizmi ishlab chiqilishi zarur. Bunda faqat ta'sisчилarning bir xilligi emas, balki yagona boshqaruv, aktiv, xodim, savdo belgisi, internet sahifasi, telefon raqami, ombor va mijozlar bazasidan foydalanish kabi iqtisodiy belgilar hisobga olinishi kerak.

Oltinchidan, soliq organlarining avtomatik xavf modeli bo'yicha asosiy mezonlar ochiq e'lon qilinishi maqsadga muvofiq. Algoritmning barcha texnik parametrlarini oshkor qilish shart emas, ammo soliq to'lovchi qaysi harakatlar uning xavf darajasini oshirishi va xavfni kamaytirish uchun nima qilishi kerakligini bilishi lozim.

Yettinchidan, QQS zanjiridagi uzilishlarni baholash uchun quyidagi natijaviy ko'rsatkichlar joriy etilishi mumkin:

- avtomatik aniqlangan nomuvofiqliklar soni;
- soliq to'lovchilar tomonidan ixtiyoriy tuzatilgan xatolar ulushi;
- tasdiqlangan soxta operatsiyalar miqdori;
- asossiz deb topilgan avtomatik ogohlantirishlar ulushi;
- kiruvchi QQS bo'yicha nizolarni hal qilish muddati;
- nazorat tadbirlari natijasida undirilgan soliq summasi;
- QQS zanjiri tiklangan operatsiyalar ulushi.

Xulosa

QQS zanjiridagi uzilishlar byudjet tushumlarining kamayishi, yashirin aylanmaning kengayishi va halol tadbirkorlar o'rtasida raqobat sharoitining buzilishiga olib keladi.



Date: 3rd August-2026

Biroq har qanday axborot nomuvofiqligini soliqdan bo‘yin tovlash sifatida baholash ham to‘g‘ri emas. Samarali ma‘muriyatchilik texnik xato, ehtiyotsizlik va qasddan tuzilgan soliq sxemasini farqlay olishi kerak.

Elektron hisobvaraqa-faktura, onlayn kassa, bank, bojxona, transport va tovar qoldiqlari haqidagi ma‘lumotlarni yagona tahliliy tizimda birlashtirish QQS zanjirini real vaqt rejimiga yaqin holda kuzatish imkonini beradi. Bunda avtomatik algoritmlar jazo tayinlovchi emas, balki xavfli operatsiyalarni saralovchi vosita bo‘lishi lozim.

QQS zanjirining raqamli pasportini joriy etish, uch bosqichli ogohlantirish va tuzatish tartibini qo‘llash, halol xaridorning kiruvchi QQSni hisobga olish huquqini himoya qilish hamda o‘zaro bog‘liq subyektlar aylanmasini umumlashtirish taklif etiladi. Ushbu choralar soliq nazoratining manzilliligini oshirish, tadbirkorlarning ma‘muriy xarajatlarini kamaytirish va byudjet daromadlarini ta‘minlash o‘rtasidagi muvozanatni kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda O‘RQ–599-son Qonuni bilan tasdiqlangan Soliq kodeksi, 2026-yil 19-iyul holatidagi tahrir.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda O‘RQ–1105-son “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda O‘RQ–1108-son “Soliq va byudjet siyosatining 2026-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. European Commission. How does VAT work?.
5. HM Revenue & Customs. VAT fraud and the abuse of the VAT supply chain.
6. OECD. Consumption Tax Trends 2024: VAT/GST and Excise, Core Design Features and Trends. Paris: OECD Publishing, 2024.
7. International Monetary Fund. Digital Solutions Guidelines for Public Financial Management. Washington, D.C.: IMF, 2023.
8. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining elektron hisobvaraqa-fakturalar va soliq xizmatlariga oid rasmiy axborot materiallari.

